

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BARQAROR RIVOJLANISH
STRATEGIYALARINI OLIY O‘QUV YURLARIDA O‘QUV KURSI SIFATIDA
JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI.**

MAMATRAIMOV KOMIL MAMATMUROD O‘G‘LI

TERMIZ MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI TARIX FANI
O‘QITUVCHISI

komilmamatraimov@gmail.com

+998(91)900-51-12

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini qo‘lga kiritgan ilk davridan boshlab mamlakatimizning erkin va barqaror rivojlanishini ta‘minlagan taraqqiyotning “o‘zbek modeli” shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston-2030” strategiyalarining mazmun-mohiyati va ularni oliy o‘quv yurti talabalariga yetkazish orqali jamiyatda sodir bo‘ladigan istiqbollar haqida fikrlar keltirilgan..

Kalit so‘zlar: Barqaror rivojlanish, taraqqiyotning “o‘zbek modeli”, “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, “O‘zbekiston-2030” strategiyalari.

KIRISH.

Jamiyatning rivojlanish tarixidan ma‘lumki, o‘zining milliy istiqbolini qo‘lga kiritgan har qanday jamiyatning asosiy maqsadi millat va davlat rivojining bosh mezonini yaratishdan iborat bo‘lib, amalga oshirilishi belgilangan rejalar ushbu davlat taraqqiy etishi va dunyo miqyosida o‘z o‘rniga ega bo‘lishida eng ustuvor bo‘lgan jihatlardan biri hisoblanadi. Jahon siyosiy tajribasida o‘z taraqqiyot yo‘lida milliylikni saqlagan holda, o‘z rejalarida millat manfaatlarini ifodalab, rivojlanish bosqichlarini aniq belgilagan mustaqil davlatgina rivojlangan taraqqiyotga erishadi. Dunyo hamjamiyati shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etishi ko‘p jihatdan mustaqil davlat uchun shart va zarur bo‘lgan barqaror rivojlanish strategiyalarining izchillikni ta‘minlagan holda yaratilishi

bilan belgilanmoqda. O'z mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlaganiga hali ko'p vaqt bo'lmasdan mustaqil O'zbekiston dunyoning eng ilg'or tajribalaridan keng foydalangan holda, o'zbek millatining asrlar osha shakllangan milliy negizlariga tayanib, ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning o'zbek xalqi mentalitetiga xos yo'li tanlab olindi va hozirgi kunda bunday siyosiy rivojlanish asosini zamonaviy dunyodagi gumanistik demokratiya g'oyalari tashkil etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Mamlakatimiz o'z istiqlolini qo'lga kiritishi bilanoq ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy – huquqiy, ma'naviy va madaniy sohalarining tadrijiy rivojlanishini o'zida to'liq mujassam etgan va globallashuv davrida zamonaviy rivojlanishning barcha jihatlarini e'tiborga olgan barqaror rivojlanish strategiyalarining yaratilishini obektiv zaruratga aylantirdi. Jamiyatimizda demokratiya va umuminsoniy fuqarolik jamiyati g'oyalarning ijtimoiylashuvi va keng qaror topishida mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki davrida taraqqiyotning "o'zbek modeli" ishlab chiqildi¹ va undagi barcha yo'nalishlar bosqichma – bosqich amalga oshirildi. Shuni ta'kidlash lozimki jamiyat hayotida demokratiyani hayotga tatbiq etishda mustaqillikni qo'lga kiritgan har qanday millat o'z taraqqiyot yo'lini izchil davom ettirishda birinchi galda rivojlanishiga xizmat qiladigan taraqqiyot modeliga tayanadi. Hayotga joriy etilgan taraqqiyotning "o'zbek modeli" bosqichlariga mamlakatimizda demokratik jamiyatni barpo etish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo'lgan barcha islohotlar zaminiga inson omili qo'yildi, bu esa O'zbekistonda demokratiyaning keng quloch yoyishiga imkoniyat yaratdi.

2017-yildan boshlab O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi – milliy yuksalish bosqichiga kirdi. Konstitutsiyamizga asoslangan, xalqimizning tub manfaatlariga javob beradigan O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi² amalga oshirila boshlandi. Harakatlar strategiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan saylovoldi jarayoni, jamoatchilik, ishbilarmon doiralar vakillari hamda davlat organlari bilan uchrashuvlar chog'ida bildirilgan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritildi. Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir. O'zbekiston tarixida o'chmas sahifa ochgan buyuk istiqlol tufayli mamlakatimiz o'tgan davr mobaynida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil ilgarilab bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni³ tasdiqlandi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi ekanini anglatadi. Agar

¹ Karimov I. "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li". Toshkent. "O'zbekiston" 1992.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. (manba. [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz))

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. (manba. www.lex.uz)

Harakatlar strategiyasida 5 ta ustuvor yoʻnalish belgilab olingan boʻlsa, Taraqqiyot strategiyasida ham ushbu ustuvor yoʻnalishlar davomiyli saqlab qoling. 2023-yil 11-sentabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-158-son Farmoni qabul qilindi va mazkur Farmon bilan Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi tasdiqlandi⁴. Mazkur strategiyadan koʻzlangan maqsad mamlakatimizni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan yangi pogʻonaga olib chiqish hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Bugunga kelib Oʻzbekistonning barqaror rivojlanish strategiyalari jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoniga aylanmoqda. Mustaqil Oʻzbekistonda istiqlol yillarida amalga oshirilayotgan islohotlarni keng ommaga yetkazish, uning mohiyatini tushuntirishda bilimli yosh avlod asosiy tayanch vazifasini oʻtaydi. Barqaror rivojlanish strategiyalarining mohiyatini mamlakatimizning barcha aholi qatlamlariga yetkazib berishda ziyolilar shuningdek oliy oʻquv yurtlarida taʼlim olayotgan yoshlar ham muhim rol oʻynaydi. Shu jihatlarni hisobga olgan holda barqaror rivojlanish strategiyalarining mazmun-mohiyati haqida oliy taʼlimning barcha bosqichlarida taʼlim olayotgan talabalarga yetkazish fikr yuritilayotgan mavzuning asosiy metodi hisoblanadi, chunki taʼlim – tarbiya oiladan, maktabdan boshlanadi. Maktabda taʼlim olayotgan yoshlarni davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar bilan tanishtirishda, ularni ona vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda oliy taʼlim sohasida tahsil olayotgan yoshlar asosiy vazifani bajaradi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida yurt taraqqiyoti uchun zarur boʻlgan bozor munosabatlariga oʻtishning oʻziga xos yoʻlini ishlab chiqish va bu islohotlarni amalga oshirishda tub islohotlarni amalga oshirish zarurati paydo boʻldi. Islohotlarni amalga oshirishda Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov boshchilik qildi. Birinchi prezident Islom Karimov oʻn ikkinchi chaqiriq Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari 1992 - yil 4 - yanvardagi IX sessiyasida soʻzlagan nutqida hamda 1992 - yil avgust oyida nashr etilgan “Oʻzbekistonning oʻz istiqlol va taraqqiyot yoʻli” asarida Oʻzbekistonning taraqqiyot yoʻlini asoslab berdi va bu yoʻl taraqqiyotning “oʻzbek modeli” deb nomlandi. Birinchi prezident I.Karimovning ushbu asarida yangilanayotgan jamiyatda ishtirok etayotgan har bir shaxsning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy turmush tarzini oʻzida aks ettirdi va bu model beshta tamoyil:

⁴Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-158-son Farmoni www.lex.uz

Birinchi tamoyil - Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi;

Ikkinchi tamoyil - Davlat bosh islohotchi;

Uchinchi tamoyil - Qonun ustuvorligining ta'minlanishi;

To'rtinchi tamoyil - Kuchli ijtimoiy-siyosat yuritish;

Beshinchi tamoyil - Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishdan iborat bo'lib, bu tamoyillar mustaqillik yillarida demokratik va iqtisodiy qayta o'zgartirishlar jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. 2017-yildan boshlab mamlakatimiz yangi rivojlanish bosqichiga kirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni tasdiqlandi. Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutdi. Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan bo'lib:

Birinchi ustuvor yo'nalish - Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;

Ikkinchi ustuvor yo'nalish – Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;

Uchinchi ustuvor yo'nalish – Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;

To'rtinchi ustuvor yo'nalish – Ijtimoiy sohani rivojlantirish;

Beshinchi ustuvor yo'nalish – Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishdan iborat edi.

Mazkur yo'nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo'limlardan iborat. Keyingi yillarda erishilgan yuksak marralar xalqimizni baxtli qilishga qaratilgan islohotlar samaralarini yaqqol ko'rsatmoqda. O'zbekistonning amalga oshirilayotgan yangi siyosati xalqaro hamjamiyat tomonidan munosib baholanmoqda. Xususan, AQSHdagi Gudzon instituti Harbiy-siyosiy tadqiqotlar markazi direktori Richard Vays fikricha, O'zbekistonning tashqi siyosiy tashabbuslari butun Markaziy Osiyo uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda⁵. O'zbekiston tarixida o'chmas sahifa ochgan

⁵Mamatraimov, Komil. "OCHIQLIK, OSHKORALIK VA KO'P TOMONLAMA HAMKORLIK O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.12 (2023): 391-396.(Manba. www.xs.uz)

buyuk istiqlool tufayli mamlakatimiz o'tgan davr mobaynida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil ilgarilab bormoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni⁶ loyihasining jamoatchilik muhokamalari 2022 yil 15 yanvarda yakunlandi. Mazkur hujjat asosida, birinchidan, Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi, ikkinchidan, Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi", uchinchidan, Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish bo'yicha milliy komissiya tarkibi yuzasidan ko'plab taklif va mulohazalar kelib tushdi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi ekanini anglatadi. Agar Harakatlar strategiyasida 5 ta ustuvor yo'nalish belgilab olingan bo'lsa, Taraqqiyot strategiyasida ham ushbu ustuvor yo'nalishlar davomiyliqi saqlab qolingan. Shu bilan bir qatorda, taraqqiyot o'zgarishlarining yangi tarixiy bosqichda davom ettirilishi ko'zda tutilgan holda, Taraqqiyot strategiyasiga 2 ta yangi ustuvor yo'nalish qo'shilgan. Bulardan biri – ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi – O'zbekistonning dunyoda yuz berayotgan global muammolarga munosabati negizida belgilangan yangi ustuvor yo'nalishdir. Shunday qilib, Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida quyidagi ettita ustuvor yo'nalish nazarda tutilgan:

Birinchi ustuvor yo'nalish – inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

Ikkinchi ustuvor yo'nalish – mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

Uchinchi ustuvor yo'nalish – milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash;

To'rtinchi ustuvor yo'nalish – adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

Beshinchi ustuvor yo'nalish – ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish;

Oltinchi ustuvor yo'nalish – umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish;

Yettinchi ustuvor yo'nalish – mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni (manba. www.lex.uz)

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2015-2030 yillarda Barqaror taraqqiyot maqsadlarini e'lon qilgan. Bu xalqaro hujjat o'zbek tilida "Barqaror taraqqiyot maqsadlari" yoki "Barqaror rivojlanish maqsadlari", degan nomlar bilan ataladi. Dastlab Harakatlar strategiyasida, uning mantiqiy davomi bo'lgan Taraqqiyot strategiyasida ham O'zbekiston bajarishni o'z zimmasiga olgan BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlarini mamlakatimiz hayotiga tatbiq etishning aniq taktika va strategiyalari belgilab berilgan. Boshqacha aytganda, O'zbekiston tashqi xalqaro munosabatlarning teng huquqli a'zosi sifatida o'zining BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlari bilan hamohang holda rivojlanishi, bu boradagi o'ziga xos o'rni va ahamiyati, yanada muhimi, ibratli tajribasini butun dunyoga ko'rsatmoqda. O'z navbatida, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ushbu muhim taraqqiypravar jarayon uzluksiz davom etayotganidan dalolat beradi. So'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohada islohotlar ko'lami tobora kengayib bormoqda. Bu borada qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Xususan, 2023-yil 11-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni qabul qilindi va mazkur Farmon bilan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi tasdiqlandi⁷. Mazkur strategiyadan ko'zlangan maqsad mamlakatimizni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan yangi pog'onaga olib chiqish hisoblanadi. Strategiyada mamlakatimizni yanada rivojlantirishga qaratilgan bir qator asosiy ustuvor yo'nalishlar o'z aksini topdi. Ushbu yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

Birinchi ustuvor yo'nalish -Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratish;

Ikkinchi ustuvor yo'nalish -Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash;

Uchinchi ustuvor yo'nalish -Suv resurslarini tjash va atrof-muhitni muhofaza qilish;

To'rtinchi ustuvor yo'nalish -Qonun usruvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;

Beshinchi ustuvor yo'nalish -"Xavfsiz tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

Ta'kidlash lozimki, Farmon bilan O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish va uning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida eng ustuvor vazifa etib belgilandi hamda bu bo'yicha ularning birinchi rahbarlariga shaxsiy mas'uliyat yuklandi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasiga "O'zbekiston — 2030" strategiyasining to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini

⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni (manba. www.lex.uz)

tashkil etish, shuningdek, uni amalga oshirish bo'yicha tegishli yillik dasturlarni tayyorlash va ijrosini muvofiqlashtirish, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasidagi islohotlar bo'yicha tadbirlarning aholi tomonidan bildirilgan fikr va tashabbuslar asosida sifatli amalga oshirilishi, belgilangan ko'rsatkichlarga erishilishini nazorat qilib, natijasi yuzasidan har yarim yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritilishini ta'minlash kabi bir qator vazifalar belgilab qo'yildi. Farmonga muvofiq, "O'zbekiston — 2030" strategiyasining hududlar kesimida ijro etilishi yuzasidan qonun chiqaruvchi hokimiyat hududiy tuzilmalari – Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari vazirlik va idoralar hududiy bo'linmalari rahbarlarining axborotini har chorakda eshitishi, ularni tanqidiy muhokama qilib borishi mumkin bo'ladi. Aytish lozimki, ushbu jarayon "O'zbekiston — 2030" strategiyasining har tomonlama to'liq va sifatli ijro etilishiga, bu borada xalq vakillarining roli kuchayishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston — 2030" strategiyasi va uni bajarish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ijrosi, tegishli maqsadli ko'rsatkichlarga erishilishi va ular doirasida normativ-huquqiy hujjatlar o'z vaqtida ishlab chiqilishi ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi ham belgilandi. Unga ko'ra, endilikda Adliya vazirligi Hisob palatasi, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi va "Yuksalish" umummilliy harakati bilan birgalikda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi va uni tegishli yillarda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar bajarilishini tizimli monitoring qilib, uning natijalarini har oyda Respublika komissiyasiga kiritib boradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari o'z hududlarida "O'zbekiston — 2030" strategiyasi ijrosining tegishli yillarda hududlar kesimida amalga oshirilishi bo'yicha har chorakda nazorat tadbirlarini o'tkazadi. Vazirlar Mahkamasi esa har oyda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi amalga oshirilishini Bosh vazir o'rinbosarlari huzurida tanqidiy ko'rib chiqishni ta'minlaydi, har chorakda Hukumat majlislarida muhokama qilib boradi hamda o'z vaqtida va to'liq bajarilmagan tadbirlar yuzasidan Hukumat a'zolariga, shu jumladan vazirlarga nisbatan tegishli choralar ko'radi hamda har yarim yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga "O'zbekiston — 2030" strategiyasi amalga oshirilishi yuzasidan hisobot taqdim qiladi⁸.

Xulosa va takliflar

So'nggi yillarda O'zbekiston hayotining ijtimoiy-siyosiy sohalarida muhim va dolzarb ulkan islohot hamda o'zgarishlar izchil amalga oshirilmoqda. O'zbekiston o'z oldiga adolatli huquqiy demokratik davlat qurish, taraqqiyotning bozor iqtisodiyotiga asoslangan yo'lidan borish va insonparvar fuqarolik jamiyatini shakllantirish vazifasini maqsad qilib qo'ygan⁹. So'nggi yillarda mamlakatimizda yashayotgan har bir insonning huquq va erkinliklarini kafolatlash va to'liq himoya qilish masalasi eng ustuvor vazifa sifatida belgilandi va "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" g'oyasi asosida Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur

⁸www.Review.uz

⁹Mamatraimov, K. M. "O'ZBEKISTON VA XITOIY XALQ RESPUBLIKASI: TARAQQIYOT YO'LIDAGI HAMKORLIK." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.4 (2023): 87-90.

siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. Muhtaram yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev "amalga oshirilayotgan barcha islohotlarimiz markazida inson qadrini ulug'lashga qaratilgan ezgu g'oya mujassam. Darhaqiqat, inson munosib sharoitda ta'lim-tarbiya olib, farovon hayot kechirgan taqdirdagina, jamiyat va davlat uyg'unlikda barqaror rivojlanadi. Shuning uchun ham, bugungi kunda jahon miqyosida inson huquq va erkinliklariga, ushbu tushunchalar bilan bog'liq reyting va standartlarga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. Inson – davlat va jamiyat uchun maqsadga erishish vositasi emas, aksincha, ana shu maqsadning bosh mazmuni va manbai hamda eng oliy qadriyat bo'lishi lozim" deya ta'kidlagan fikrlarida jamiyat taraqqiyoti va yurt farovonligi ta'minlash, ertangi kuniga bo'lgan ishonchni uyg'otish, jamiyat kelajagini asosiy qonun bilan himoya qilish g'oyasi bugun amaliy harakatga aylanmoqda. Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyalarini oliy o'quv yurtlarida o'quv kursi sifatida joriy etish yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirish, yurtboshimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun – mohiyatini to'g'ri anglashlariga ilmiy jihatdan ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.

[2. Karimov I. "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li". Toshkent. "O'zbekiston" 1992.](#)

3. Mamatraimov, K. (2023). OCHIQLIK, OSHKORALIK VA KO'P TOMONLAMA HAMKORLIK O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 391-396.

4. Mamatraimov, K. M. (2023). O'ZBEKISTON VA XITOIY XALQ RESPUBLIKASI: TARAQQIYOT YO'LIDAGI HAMKORLIK. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 87-90.

INTERNET SAYTLARI.

1. www.lex.uz
2. www.Review.uz